

SAID AHMAD HIKOYALARIDA INSONNING QALBIGA TA'SIR QILUVCHI BADIY VOSITALAR

Abduvaxobova Mashhura Iqboljon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili

yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Said Ahmadning hikoyalarida inson qalbiga ta'sir qiluvchi badiiy vositalar tahlil qilinadi. Muallif qahramon obraz lari, hazil va kulgi, ijtimoiy va ma'naviy masalalar hamda til va tasvirlar yordamida kitobxonda hissiy ta'sir uyg'otishini ko'rsatadi. Maqolada shuningdek, hikoyalardagi badiiy usullar orqali kitobxonning nafaqat kulgi va zavq olishini, balki hayotiy saboq olishini, insoniy tuyg'ularni anglashini va ichki dunyosini boyitishini yoritadi. Shu bilan birga, maqola Said Ahmad ijodining o'zbek adabiyotidagi o'rni va uning hikoyalaridagi hissiy ta'sir kuchini ochib beradi.

Kalit so'zlar. Said Ahmad, xarakter, badiiy vositalar, jamiyat, ma'naviyat, nasr, realistik, latifa, kinoya, hikoyat, badiiy makon

Kirish

Hajviyanavis, dramaturg Said Ahmad XX asr o'zbek nasrining rivojiga sezilarli hissa qo'shgan ijodkorlardan sanaladi. Uning asarlarida xalqning ruhiy olami, milliy xarakter, oddiy insonlarning taqdiri, jamiyatdagi o'zgarishlar va hayotiy haqiqatlar juda samimiy hamda tabiiy tasvirlangan. Adibning ijodi o'zbek nasrida psixologik tasvir, yumor, xalqona til va realistik yondashuvning mukammal uyg'unlashuvi bilan ajralib turadi. Said Ahmad o'z asarlarida inson qalbini nozik ilg'ashi, badiiy vositalarni mahorat bilan qo'llashi bilan mashhur. U hayotdagi achchiq haqiqatlarni ham kulgi, kinoya, latifa va hazil aralash yoritib, o'quvchini o'ylantiradigan, shu bilan birga ruhlantiradigan badiiy

makon yaratgan. “Jimjitlik”, “Ufq”, “Yo‘qotganlarim va topganlarim”, “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “Qorako‘z Majnun” kabi asarlar o‘zbek nasrining oltin fondidan o‘rin olgan.

Said Ahmad o‘zbek adabiyotida kulgi, hazil va hayotiy voqealarni jonli tasvirlash orqali o‘quvchining qalbiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan yozuvchilardan biridir. Uning hikoyalari nafaqat kulgili, balki o‘quvchida hissiyot uyg‘otadigan, o‘yga chorlaydigan asarlardir. Said Ahmad hikoyalarida bu ta’sirni yaratish uchun qahramon obrazlari, hazil va kulgi, ijtimoiy va ma’naviy masalalar hamda rang-barang tasviriy ifodalar kabi turli badiiy vositalar ishlatiladi. U o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lib, uning hikoyalarida inson ruhiyati, ichki kechinmalar, orzu va umidlarning buzilishi juda ta’sirli tarzda tasvirlanadi. “Sarob” hikoyasi ham ana shunday asarlardan bo‘lib, unda insonning ichki olamini ochib beruvchi badiiy vositalar mohirona qo‘llangan. Ushbu hikoyada muallif qahramonning ruhiy iztiroblarini, uning aldangan orzularini va haqiqatni tushunish jarayonini badiiy tasvirlar orqali o‘quvchi qalbiga yetkazadi. O‘g‘il va ota o‘rtasidagi muammo tasvirlangan. O‘g‘il o‘z ko‘ksiga Stalinning rasmini chizdirob “Men ko‘ksimda Stalin bilan jangga kiraman” deyishi, hattoki o‘z familyasini Olimjonovdan Yulqinovga o‘zgartirgani achinarli holat albatta. Uning qilgan ishlari, otasini qamatgani kitobxonning qalbiga ta’sir qiladi. Kimsanboy oxirida qilmishlariga yarasha jazo oladi, qamaladi va usha yerda vafot etadi. Uning ko‘ksida Stalinni rasmi bo‘lgani uchun mayiti ko‘milmaydi.

Said Ahmadning “Begona” hikoyasi inson ruhiyatidagi murakkab kechinmalar, oilaviy aloqalardagi sovuqlik va begonalik hissini ochib beruvchi asarlaridan biridir. Hikoyaning markazida — Hasan, Xayri va ularning o‘g‘li G‘ayrat tasvirlangan bo‘lib, asar oiladagi munosabatlar, uzoqlashish, kechirim va mehr kabi masalalarni kitobxonga chuqur yetkazadi.

Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyasi inson qalbining nozik tuyg‘ularini o‘ta samimiy va achchiq haqiqat bilan tasvirlagan. Saodat ayaning armiyaga ketgan o‘g‘lining sog‘inchi, uni deb uyda o‘tirib qolgan qizi Qumri, uni hattoki farzandlaridan ham ortiqroq yaxshi ko‘radigan iti Qorako‘z obrazlari hikoyada keltirilgan. Bo‘roboyni o‘ttiz ikki yildan so‘ng uyiga qaytishi, o‘sha paytda nafaqat o‘z tilini yo‘qotganligi, hattoki o‘z dinidan ham bir xristian qizni deb voz kechganligi ko‘rishimiz mumkin. Saodat aya

umraga bormagan bo'lsa ham uni hoji ona deb janoza o'qishadi. Chunki u umraga to'plagan pullarini hojilarga berardi. Insonga insondan ko'ra it yaqin do'st bo'lishini ham kitobxon shu hikoyani o'qib bilishi mumkin. Oxiridagi Qorako'zning o'limini olsak bu ham bir insonning qalbi larzaga solishi ehtimoldan xoli emas.

Said Ahmad hikoyalarida inson qalbining nozik tuyg'ulari, ichki kechinmalari va ruhiy iztiroblari badiiy vositalar orqali chuqur va ta'sirchan tarzda ochiladi. Tasviriy detallar, psixologik tahlil, dramatik ziddiyat, timsol va dialoglar qahramonlarning ichki dunyosini kitobxonga yaqin his ettiradi. Masalan, "Begona" (Xayri va Hasan), "Qorako'z majnun" (Saodat aya, Bo'rixon, Qumri va Qorako'z) hikoyasida esa qahramonlarning ichki kechinmalari ochiladi. Shu badiiy vositalar o'quvchida mehr, iztirob, sadoqat va kechirim kabi tuyg'ularni uyg'otadi.

Xulosa.

Said Ahmadning yozish uslubida ortiqcha balandparvozlik yo'q; aksincha, sodda, xalqona tilda ifodalangan chuqur ma'naviy mazmun mavjud. Ana shu sodda badiiy usulning o'zi kitobxonni hayratga soladi, o'ylantiradi va eng muhimi — ta'sirlantiradi. Uning hikoyalarini o'qir ekanmiz, qahramonlarning dardi, quvonchi, qo'rquvi va umidlari bizning dardimiz va kechinmamizga aylanadi. Demak, Said Ahmadning ijodidagi badiiy vositalar nafaqat voqeani bezaydi, balki inson qalbining eng nozik qatlamlariga kirib boruvchi kuchli ma'naviy ko'prik vazifasini bajaradi. Shunday qilib, Said Ahmad hikoyalari inson qalbiga bevosita ta'sir qiluvchi badiiy vositalarning mohirona ishlatilishi bilan ajralib turadi va kitobxonga kuchli ma'naviy ta'sir qoldiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ahmad S. Hikoyalar. www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Ahmad S. Qorako'z majnun.-Toshkent: O'zbekiston, 2001.
3. Karimov N. O'zbek adabiyoti tarixi.-Toshkent. O'zbekiston, 2010.
4. Qosimov M. O'zbek nasri taraqqiyoti.- Toshkent: Fan, 1999.
5. Nurullayeva M. Said Ahmad ijodining badiiy xususiyatlari.- Toshkent: Muharrir, 2017.